

CHUST PICHOG'I – O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGINING DURDONASI

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

ilmiy xodimi: **Z. Mamadaliyeva**

Chust pichog'i – Namangan viloyatida vodiyning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Chust shahrida usta hunarmandlar tomonidan tayyorlanadi. Chust pichog'i nafaqat chiroyli, balki g'ayrioddiy vazifalarni ham bajara oladi: u sochni osongina kesadi. Tig'ini to'g'ri o'tkirlasa, juda uzoq yillar xizmat qiladi. O'zbekistonda „Chust pichog'i atamasi „Yuqori sifatli pichoq“ iborasi bilan ma'nodosh sanaladi. Mil. avv. VIII asrda Bibiona qadamjosida mahalliy aholi pichoqchilik hunari bilan shug'ullanishgan. Mil. avv. VIII asrdan to XV asrga qadar Chustda faqat pichoq ishlab chiqarilgan. Shu sababli butun dunyoga Chust pichog'i nomi mashhur bo'lgan. Bugungi kunda „yorma“, „bodomcha“, „chamandasta“, „chumchuq“ va „etik sopli“ pichoqlari yasaliib, chet elga eksport qilinmoqda. Chust milliy pichoqlari ko'hna va qadimiy bo'lib, qo'l mehnati bilan tayyorlanganligi sababli dunyoning barcha mamlakatlarida xaridorgir mahsulot hisoblanadi. Haqiqiy Chust pichog'i har doim tashqi go'zalligi bilan boshqa pichoqlardan ajralib turadi. Odatda uning tig'i tekis, kengligi 3-4 sm va uzunligi 10 dan 20 sm gacha bo'ladi. Haqiqiy Chust pichog'ining sopi fil suyagi, sayg'oq yoki bug'u suyagidan yasalgan bo'ladi. Marvarid, kumush yoki rangli toshlar bilan bezatilgan bo'lib, metall qismi o'yma naqshlar bilan ishlangan bo'ladi. Shu sababli bu pichoqlar xalq tilida „Guldor pichoq“ deb ataladi. Chust pichoqlari pichoqning shakli va kengligiga qarab bir necha turlarga bo'linadi: tor, qiyshiq tig'i bor, biroz tol bargini eslatuvchi „Tolbargi pichoq“, muhrasi (keskir tomoniga qarama-qarshi tomon) tekis „to'g'ri pichoq“, tig'i biroz egilgan „Hisori pichoq“, „Qozoqi pichoq“ va „Bodomcha pichoq“, tig'ining yuqori qismida chuqurchasi bo'ladigan „Soylik pichoq“ va xuddi shunga o'xshash yuqori cheti – qo'shkamalak bo'ylab chuqurchaga ega „Kamalak pichoq“ va „Qushsoylik pichog'i“ kabi

turlarga bo'linadi. Chustda an'anaviy pichoqlarning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z maqsadiga ega. Oshxonada ishlatish, go'shtni kesish yoki sabzavotlarni tozalash va maydalash uchun pichoqlar mavjud. Hatto mevalarni tozalash uchun maxsus kichik pichoqlar, ovchilar uchun qulay pichoqlar, daraxtlarni kesish uchun ham maxsus pichoqlar ham bor. Chust ustalari yasagan pichoqlar boshqa pichoqlardan keskin farq qiladi. Pichoqning dasta hamda tig'i uzunroq, tig'ining uchi tashqariga, dastasining uchi ichkariga tomon qayrilgan bo'ladi. Chust shahrida pichoqchilik an'analari hali ham davom etib kelmoqda. Farg'ona vodiysida Chust asosiy pichoq tayyorlash joyi bo'lib, u boshqa pichoqchilik maktablaridan mutlaqo farq qiladi. Chust pichoqlari shaklining soddaligi hamda siqqligi bilan mashhur. 1932-yilda Chustda „Qizil kuch“ nomli artel ochilib, unda pichoqlar ishlab chiqarila boshlanadi. Ba'zi og'ir qo'l mehnatlari stanoklarda bajarilgan. Oldin ustalar pichoq tig'larini yasash uchun eski arralar hamda podshipniklardan foydalanganlar. Pichoq dastalari esa hayvon shoxlaridan va yog'ochlardan yasalgan. 1949-yildan boshlab artel tuman maishiy xizmat ko'rsatish kombinati deb yuritildi. Keyinchalik, 1970-yilda Chust shahrida pichoq ishlab chiqarish zavodi qurildi. Chust pichoqlarining dovrug'i butun mamlakatga taraldi. Chust pichoqlari sobiq Ittifoq ko'rgazmalaridagina emas, balki Hindiston, Suriya, Polsha, Turkiya, Bolgariya, Vengriya, Belgiya, Shvetsiya va boshqa chet mamlakatlardagi ko'rgazmalarda ham munosib o'rinlarni egalladi. 1980-yili Nyu-Delida ochilgan III-Xalqaro Osiyo yarmarkasiga 10 xil Chust pichog'i yuborilgan edi. Chust pichog'i ham boshqa milliy pichoqlar kabi uchta qismdan: tig', dasta va qindan iborat. Tig'-pichoq tig'i, pichoqning gulbanddan yuqorigi, ya'ni kesadigan qismi. Qadimdan tig'ni o'tkirlash va silliqlashga katta e'tibor berilgan. U bigiz, qalam, naqsh, naycha qalam kabi o'yg'ich qalamlar bilan bezatiladi. Chust pichoqlari dastasi o'ziga yarasha usullar bilan yasaladi. Ular suqma dasta, yorma dasta hamda naqshinkor dastalarga bo'linadi.

Chust pichog'i O'zbekistonning eng mashhur milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan biridir. U Chust shahrida yasalishi bilan mashhur bo'lib, o'zining sifati, mustahkamligi va nafis bezaklari bilan qadrlanadi.

Chust pichoqchiligi bir necha asrlik tarixga ega. Usta hunarmandlar pichoqlarni qoʻlda yasab, ularga oʻziga xos naqsh va bezaklar beradilar. Pichoqning tigʻi maxsus poʻlatdan tayyorlanadi, dastasi esa yogʻoch, suyak yoki shoxdan ishlanishi mumkin.

Chust pichoqlarining asosiy xususiyati – ularning tigʻi oʻtkir, yengil va foydalanishga qulay boʻlishidir. Shu sababli ular nafaqat maishiy ehtiyojlarda, balki milliy qadriyat va sovgʻa sifatida ham keng qoʻllaniladi.

Bugungi kunda Chust pichogʻi Oʻzbekiston hunarmandchiligining ramzlaridan biri hisoblanadi. Uni yaratish sanʼati avloddan avlodga oʻtib kelmoqda va milliy merosimizning muhim qismi sifatida eʼzozlanadi.

Chust pichogʻi oʻzbek xalqining boy madaniy merosi va hunarmandchilik anʼanalarining yorqin namunasidir. Uning tarixi, sifati va goʻzalligi xalqimizning mahoratini namoyon etadi. Shuning uchun Chust pichoqchilik sanʼatini asrab-avaylash va rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Chust pichogʻi xalqimizning boy tarixi, mehnatsevarligi va hunarmandchilik anʼanalarini oʻzida mujassam etgan noyob sanʼat asaridir. Uni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov Q. **Oʻzbek xalq amaliy bezak sanʼati va hunarmandchiligi.** – Toshkent: Oʻqituvchi, 2010.
2. Bulatov S. **Oʻzbek xalq amaliy sanʼati.** – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1991.
3. Abdugʻaniyev A. **Oʻzbek hunarmandchiligi tarixi.** – Toshkent: Fan, 2008.
4. **Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi.** 12 jild. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy